

**“NETAY” QISSASIDA AYOL TAQDIRI VA HUQUQIY MUAMMOLAR
TALQINI****Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi****Abdixoliqova Ruxshona**abdixoliqovaruxshona@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri - G‘afur G‘ulomning Netay qissasi asosida jamiyatda ayolning o‘rni, uning huquqlari, ijtimoiy bosim va adolatsizlik masalalari tahlil qilinadi. Asarda tasvirlangan voqealar orqali o‘tmish davr muammolari bugungi kun bilan qiyoslanib, ayniqsa ayollar huquqlarining buzilishi, majburiy qarorlar, tengsizlik kabi dolzarb masalalar yoritiladi. Muallif badiiy vositalar orqali nafaqat bir qahramon taqdirini, balki butun jamiyatdagi tizimli muammolarni ochib beradi. Qissadagi Netay obrazi ayol erkinligi, inson huquqlari, jamiyatdagi stereotiplar va ijtimoiy bosim masalalarini ochib beruvchi umumlashgan obraz sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada asarda ko‘tarilgan muammolar zamonaviy huquqiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham baholanadi.

Kalit so‘zlar: ayollar huquqlari, ruhiy bosim, gender siyosati, ijtimoiy tengsizlik, majburiy nikoh, adolat, jamiyat.

O‘zbek adabiyotida inson taqdiri, ayniqsa ayolning jamiyatdagi o‘rni va uning ichki kechinmalarini yoritishda G‘afur G‘ulom alohida o‘rin tutadi. Uning “Netay” qissasi ilk qarashda oddiy bir ayol hayoti haqida hikoya qilgandek tuyuladi. Ammo chuqurroq nazar tashlansa, bu asar jamiyatdagi murakkab ijtimoiy va huquqiy muammolarni o‘zida mujassam etganini ko‘rish mumkin. Netay obrazi orqali muallif ayolning faqatgina oiladagi emas, balki jamiyatdagi o‘rni qanday cheklanganini, uning huquqlari qanday poymol etilganini juda nozik va ta’sirli tarzda ko‘rsatadi. Bu qissa bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki unda ko‘tarilgan masalalar ayollar huquqlari, majburiy nikoh, zo‘ravonlik va ijtimoiy tengsizlik hali ham ko‘plab jamiyatlar uchun muhim muammo bo‘lib qolmoqda.

Adabiyot ko‘pincha jamiyat oynasi deb aytiladi. Chunki yozuvchi badiiy obrazlar orqali jamiyatdagi muammolarni ochib beradi, insonni o‘ylashga majbur qiladi. “Netay” qissasi ham ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda ayol taqdiri orqali jamiyatdagi adolatsizlik, tengsizlik va ijtimoiy bosim masalalari ochib beriladi. “Netay” qissasining markazida o‘z taqdirini o‘zi tanlash imkonidan mahrum qilingan ayol obrazi turadi. Netay hayoti uning irodasidan tashqarida shakllanadi. U o‘z



Learning and Sustainable Innovation

xohishiga qarshi turmushga beriladi, uning fikri va istaklari inobatga olinmaydi. Bu holat esa bevosita insonning shaxsiy huquqlari buzilishi sifatida baholanishi mumkin. Asarda shunday ruhiy holatlar tasvirlanadiki, ular insonini befarq qoldirmaydi. Netayning ichki dunyosi, uning o‘ylari, iztiroblari, umidsizlik va taqdirga bo‘ysunish o‘rtasidagi kurashi juda ta’sirli tasvirlangan. Go‘yo qahramonning qalbidan quyidagi savol
yangraydi:

“Nega mening hayotimni boshqalar hal qiladi? Axir bu mening taqdirim-ku...”

Bu jumlar aniq dialog shaklida berilmagan bo‘lsa-da, qahramonning butun ruhiy holati aynan shu mazmunda ochiladi. Bu esa ayolning tanlash huquqi, erkin yashash huquqi va shaxsiy daxlsizlik huquqi buzilganini ko‘rsatadi. Netay obrazi shunchaki bir ayol obrazi emas. U o‘z davridagi minglab ayollarning umumlashgan obrazi hisoblanadi. Ularning hayoti ko‘pincha o‘zlari tomonidan emas, balki ota-onasi, qarindoshlari yoki jamiyat tomonidan hal qilingan. Bu esa ayolning jamiyatdagi o‘rni qanchalik cheklanganini ko‘rsatadi.

Qissada ko‘tarilgan eng muhim muammolardan biri - ijtimoiy bosim masalasidir. Netay o‘z hayoti haqida mustaqil qaror qabul qila olmaydi, chunki jamiyat an‘analari, qarindosh-urug‘larning fikri va ijtimoiy stereotiplar uning erkinligini cheklab qo‘yadi. Bu yerda yozuvchi juda muhim g‘oyani ilgari suradi:
Ba‘zan insonni birgina shaxs emas, balki butun jamiyat ezadi.

Netayning fojeasi ham aynan shunda. Uni birgina odam emas, balki urf-odatlar, qarindoshlar, jamiyat fikri, “odamlar nima deydi” degan tushuncha ezadi. Bu esa ijtimoiy bosimning eng xavfli ko‘rinishidir. Majburiy nikoh masalasi ham qissada muhim o‘rin tutadi. Netay o‘z xohishiga qarshi turmushga beriladi. Bu esa insonning eng asosiy huquqlaridan biri – o‘z hayot yo‘lini tanlash huquqi buzilishi hisoblanadi. Muallif bu masalani ochiq aytmaydi, lekin voqealar orqali juda aniq ko‘rsatib beradi. Ruhiy bosim ba‘zan jismoniy zo‘ravonlikdan ham og‘ir bo‘lishi mumkin. Chunki jismoniy jarohat tuzalishi mumkin, ammo ruhiy jarohat inson qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Netay obrazi orqali yozuvchi aynan shu ruhiy bosimning ayol hayotiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy huquqiy nuqtai nazardan, bugungi kunda ayollarning huquqlarini himoya qiluvchi ko‘plab qonunlar mavjud. Jumladan, xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish, gender tengligini ta’minlash, ayollarning ijtimoiy hayotdagi rolini oshirishga qaratilgan ko‘plab qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Masalan, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi” qonun, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi” qonun, “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi” Konvensiya, “Mehnat



kodeksi” va boshqa bir qator hujjatlar. Jumladan, har bir qonunchilik va jamiyatda uni ijro etilishi xotin-qizlarga bo’lgan e’tibor va hurmatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa,¹ “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar kafolatlari to’g’risidagi” qonun gender siyosatining asosiy huquqiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hujjat gender tengligini ta’minlash, ayollarga nisbatan kamsitishlarni oldini olish va ularning ijtimoiy hayotdagi rolini kuchaytirish bo’yicha muhim chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Bundan tashqari ayollarni oilaviy zo’ravonlikdan himoyalash uchun² “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risidagi” qonun hujjati va ularni mehnat sharoitida gender tengligini taminlash, bir xil munosabatda bo’lishi qonunchilik doirasida belgilab qo’yilganligi, mehnat munosabatlarida ularni teng huquqlardan foydalanishi, ish sharoitlarida o’ziga tegishli bo’lgan barcha huquqlar: ishga joylashish, mehnat ta’tiliga chiqish, dam olish soatlaridan foydalanish, erkaklar bilan bir xil maosh olishi mehnat vazifasiga qarab albatta, har bir huquqlar Mehnat kodeksining 227-moddasi birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta’tilini berish tartibi, 244-moddada ayollar va erkaklar teng miqdorda maosh olishi, ayollarning 55 yoshdan so’ng pensiya olishi va boshqa bir qancha jarayonlar kodeksning moddalarida o’z aksini topadi.³

Bu qonunlar ayollarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Biroq “Netay” qissasi bizga shuni eslatadiki, qonunlar qanchalik mukammal bo’lmasin, agar jamiyat ongida o’zgarish bo’lmasa, muammo saqlanib qolaveradi. Bugungi kunda ham yurtimizda ayollarga nisbatan kamsitish, ularga zo’ravonlik qilish haqorat qilish holatlari ham kam emas. 2025 yil birinchi yarmida mamlakatda ayollarga nisbatan 48303 ta tazyiq va zo’ravonlik holati qayd etilgan bo’lib, bu o’tgan yilning mos davriga nisbatan 121 foizga ko’pdir.⁴ Qancha harakat qilinmasin, bu sonlar kamayishi foizi juda pastdek tuyiladi, ammo muhim chora tadbirlarni amalga oshirib kelayotgan davlatlarni ayollarga nisbatan zo’ravonlik va bosim darajasi pasayganligini ko’rishimiz mumkin. Jumladan, WHO (Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti), UN Women (ayollar jamiyati), World Bank (dunyo banki), Women Peace va Security Index darajasi bilan hisoblanganda Islandiya, Norvegiya va Shvetsariya mamlakatlarida minus 10-12% tashkil etadi.⁵ Olimlarning aniqlashicha, qonunlarni faqatgina tashkil etish bu muammolarni bartaraf qilish uchun yechim emas, jamiyatdagi mavjud qarashlarni

¹ <https://lex.uz/docs/-4494849>

² <https://lex.uz/uz/docs/-4494709>

³ <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

⁴ <https://kun.uz/news/2025/08/13/ayollarga-tazyiq-va-zoravonlik-holatlari-121-foizga-oshgani-malum-boldi>

⁵ <https://submit.ncbi.nlm.nih.gov/>



Learning and Sustainable Innovation

o'zgartirish ya'ni ayollarga bo'lgan hurmatni doimiy ko'rsatib borish, kichiklarga o'rnak bo'lish va yomon steroitiplarga qarshi kurashish yaxshiroq yechim sifatida ko'rilgan. Demak, muammo faqat qonunda emas, balki insonlarning dunyoqarashida hamdir.

Xulosa qilib aytganda, Netay qissasi faqatgina bir ayolning fojeali taqdiri haqida emas, balki jamiyatdagi chuqur ildiz otgan muammolar haqida yozilgan asardir. G'afur G'ulom bu asari orqali ayol huquqlari, erkinlik, adolat va insoniy qadr-qimmat masalalarini juda o'tkir va ta'sirli tarzda ko'taradi.

Netay obrazi insonni o'ylashga majbur qiladi insonning eng oddiy huquqlari -tanlash, erkin yashash, o'z fikrini bildirish huquqi nega ba'zan e'tiborsiz qoladi? Bu savol bugungi kun uchun ham dolzarb hisoblanadi. Asar insonga nafaqat estetik zavq beradi, balki unda huquqiy ongni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, u bizni befarq bo'lmaslikka, adolat uchun kurashishga va har bir inson, ayniqsa ayolning huquqlarini hurmat qilishga chaqiradi. Shunday ekan, "Netay" qissasi o'zbek adabiyotidagi nafaqat badiiy, balki ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim asarlardan biri hisoblanadi. Bu asar orqali yozuvchi jamiyatni o'zgartirish uchun avvalo inson tafakkuri o'zgarishi kerakligini anglatadi. Adolatli jamiyat esa inson huquqlari hurmat qilinadigan jamiyatdir. Netay obrazi esa ana shu adolat va erkinlik uchun jim turib kurashgan ayollar ramzi sifatida o'zbek adabiyotida muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://gafur-gulom-library-one.netlify.app/>
2. <https://lex.uz/>
3. <https://kun.uz/>